

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/375422347>

AMIR ALISHER NAVOIY VA OZARBAYJON

Conference Paper · February 2017

CITATIONS

0

READS

96

1 author:



[Almaz Binnatova](#)

Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu

114 PUBLICATIONS 28 CITATIONS

SEE PROFILE

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
НАВОИЙ ВИЛОЯТИ ҲОКИМЛИГИ**

**ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАВОИЙ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ
АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ УНИВЕРСИТЕТИ**

**“АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЙ МЕРОСИННИГ
УМУМБАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ - МАЪРИФИЙ
ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ”**

*халқаро илмий анжуман материаллари
2017 йил 11 февраль*

**"МЕСТО ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ А.НАВОИ В
РАЗВИТИИ ДУХОВНОСТИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ
ЧЕЛОВЕЧЕСТВА"**

*Международная научная конференция
11 февраля 2017 г.*

**“THE SIGNIFICANCE OF THE CREATIVE INHERITANCE OF
ALISHER NAVOI IN THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL
DEVELOPMENT OF THE HUMANKIND”**

*International scientific conference
February 11, 2017*

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
НАВОИЙ ВИЛОЯТИ ҲОКИМЛИГИ**

**ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАВОИЙ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ
АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ УНИВЕРСИТЕТИ**

**“АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЙ МЕРОСИНИНГ
УМУМБАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ - МАЪРИФИЙ
ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ”**

**халқаро илмий анжуман материаллари
2017 йил 11 февраль**

KHOKIMYAT OF NAVOI REGION
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION
MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION

NAVOI STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI.

**“THE SIGNIFICANCE OF THE CREATIVE
INHERITANCE OF ALISHER NAVOI IN THE
SPIRITUAL AND EDUCATIONAL DEVELOPMENT
OF THE HUMANKIND”**

International scientific conference
February 11, 2017

Navoi city

ХОКИМЯТ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ

МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**МИНИСТЕРСТВА ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ**

НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКСКОГО
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ.**

**"МЕСТО ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА
НАВОИ В РАЗВИТИИ ДУХОВНОСТИ И
ПРОСВЕЩЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА"**

**Международная научная конференция
11 февраля 2017 г.**

Навои - 2017

Ушбу тўплам Алишер Навоий таваллудининг 576 йиллигига бағишлаб Навоий вилояти ҳокимлиги, Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Навоий давлат педагогика институти ҳамда Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат Ўзбек тили ва адабиёти университети билан ҳамкорликда ўтказиладиган **“Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий - маърифий тараққиётидаги ўрни”** мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжумани материалларидан ташкил топган.

Тўплам материалларидан жамият институтлари, филолог мутахассислар, она тили ва адабиёти ўқитувчилари, КИХИ ҳамда магистратура ва бакалаврият талабалари фойдаланишлари мумкин.

Халқаро илмий-амалий анжуманнинг ташкилий қўмитаси

1. Қ.Б.Турсунов	Навоий вилоят ҳокими, раис.
2. У.Р.Раззоқов	Навоий вилоят ҳокими биринчи ўринбосари, раис муовини.
3. Ш.С.Сирожиiddинов	Тошкент Давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ректори, аъзо.
4. Ж.О.Тахиров	Навоий давлат педагогика институти ректори, аъзо.
5. Муҳаммад Али	Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси раиси, аъзо.
6. Я.Душанов	Навоий вилоят ҳокимлиги котибият мудири
7. У.Сафаров	Навоий вилоят ҳокимлиги Маънавият ва тарғибот маркази раҳбари
8. О.С.Қаюмов	Навоий ДПИ маънавият ва маърифий ишлар бўйича проректор, аъзо.
9. З.Х. Жумаев	Навоий ДПИ Ўзбек тили ва адабиёти факультети декани, аъзо.

Халқаро илмий-амалий анжуманнинг дастурий қўмитаси

1.С.О.Хўжжиев	Навоий ДПИ илмий ишлар бўйича проректор, раис.
2.Т.Р.Хўжаев	НавоийДПИ доценти, раис муовини.
3. С.К.Жумаева	Навоий ДПИ Ўзбек адабиёти кафедраси мудири, аъзо.
4. Г.Ашурова	Тошкент Давлат ўзбек тили ва адабиёти университети КИХИ, аъзо.
5. Н.Муродова	Навоий давлат педагогика институти профессори, аъзо.
6. Б.Зарипов	Навоий ДПИ Ўзбек тили кафедраси доценти, аъзо
7. Р.Нуриддинова	Навоий ДПИ Ўзбек тили кафедраси мудири, аъзо
8. Г.Болтаева	Навоий ДПИ Ўзбек тили кафедраси доценти, аъзо
9.Р.Давлатова	Навоий ДПИ Мактабгача таълим кафедраси мудири, аъзо
10. З.О.Қувонов	Навоий ДПИ Ўзбек адабиёти кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо.

Такризчилар:

А.Холмуродов	Навоий ДПИ Илмий ахборотномаси бош муҳаррир ўринбосари, филология фанлари доктори.
Н.Сафарова	Навоий ДПИ Ижтимоий фанлар кафедраси мудири, фалсафа фанлари доктори.

Тўпламда нашр этилган мақола ва тезислар мазмуни ҳамда савиясига муаллифлар масъулдир.

Навоий давлат педагогика институти Кенгашининг 2017 йил 31 январдаги 6-сонли баённомасига асосан нашрга тавсия этилган.

адабиёти, Онадўли туркларининг адабиёти, татар ва бошқирд адабиётлари Озарбайжонда чуқурроқ тадқиқ этилмоқда.

Биз умумий баҳоларимизни ҳам илмий шаклда, теран меъёрлар билан ўртага қўяр эканмиз, бунинг асосида замонавий маданиятларни ривожланиш бу жиҳатдан ўзбек адабиёти бой адабий хазинадир.

ОМИА Низомий номли Адабиёт институтининг “Озарбайжон-Туркменистон-Ўзбекистон адабий алоқалари” шўъбасининг мудир, филология фанлари доктори, профессор Алмаз Улви Биннатова Озарбайжон, Туркия, туркий дунёда ва Ўзбекистонда машхур ўзбекшунос олим сифатида танилган.

Ва ўзбек адабиётининг, айтиш мумкинки, бутун тарихий босқичлари ва атоқли сиймолари Озарбайжонда ўрганилган. Улардан бир қанчасининг туб моҳияти билан талқин этилишида Алмаз Улви Биннатова ва у раҳбарлик қилаётган шўъбанинг бошқа ходимларининг самарали хизматларини алоҳида таъкидлаб ўтишга бугун ўзимни бурчли деб ҳисоблайман. Бугун Озарбайжон-Ўзбекистон алоқалари барча соҳаларда, шу жумладан, илмий соҳада ҳам тараққий этмоқда.

Озарбайжон Республикасининг Президенти Илҳом Алиев Озарбайжон-Ўзбекистон алоқаларининг янада тараққий қилишига ўзига хос фикрларни билдирди. Мен ҳам шуни қўшимча қилиб айтаманки, пойдевори собиқ совет ҳукмронлиги даврида миллий раҳнамомиз Ҳайдар Алиев тарафидан қўйилган Озарбайжон-Ўзбекистон адабий алоқалари, илмий-маданий ҳамкорликлари мустақиллик даврида, янги асрда ҳам юксак қадрланади, давом эттирилади ва узвийлик касб этаверади.

Худди шундай муносабатни Ўзбекистон тарафидан ҳам кўрмоқдамиз. Шуни айтишни ўзимга бурч деб биламанки, Озарбайжоннинг бош муаммоси бўлмиш Озарбайжон-Арманистон-Тоғли Қорабоғ зиддиятларининг ҳал этилишида Ўзбекистон Озарбайжонни қатъият билан қўллаб-қувватлаб туриши ҳар бир озарбайжонлик томонидан миннатдорлик ҳисси билан қарши олинди. Ўзбек халқ, Озарбайжон халқи қадим тарихи илдизлари бир бўлган, ўтмишнинг барча босқичларида бир-бирига таянч бўлиб турган, бир-биридан ўрганган ҳолда ривожланган, умумтуркий маданият учун буюк инъомлар тақдим этган халқлардир. Бу қардошлик, дўстлик ва бу ҳамкорлик бугун ҳам муваффақият билан давом этмоқда.

Ўйлайманки, ОМИА Низомий номли Адабиёт институтида Алишер Навоийнинг 575 йиллиги муносабати билан ташкиллаштирилган Халқаро анжуман ҳам Озарбайжон-Ўзбекистон илмий-адабий-маданий алоқаларининг янги тарихий давридаги хотирада сақланиб қоладиган аҳамиятли ҳодисалардан бири бўлиб қолади.

Биз биламизки, Ўзбекистон ҳаётида янги бир давр, этап, босқич бошланмоқда. Ўзбекистон шундай бир мамлакатки, у ўз тарихини, анъаналарини доимо қадрлаб келган. Ишонамизки, ўлканинг бу кунга қадар яшаб келаётган сиёсий борадаги аниқ стратегик тажрибаси Ўзбекистон келажакдаги тараққиётида мукамал пойдевор вазифасини бажаради. Мустақил Ўзбекистон давлатига, халқига улкан зафарлар тилаб қоламиз. Ҳамкорликларимизнинг, дўстлигимизнинг, илмий алоқаларимизнинг янада мустаҳкамланишига кўмак бериш ҳар икки ўлка учун тенг аҳамиятидир.

(Озарбайжон тилидан Сирдарёхон ЎТАНОВА таржимаси)

AMIR ALISHER NAVOIY VA OZARBAYJON

Almas ULVI (Binnatova)

filologiya fanlari doktori, professor

Ozarbajjon Milliy Bilimlar Akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomli

Adabiyot Institutining “Ozarbajjon-Turkmaniston-O‘zbekiston adabiy aloqalari” sho‘basining mudiri, (Azerbaijan)

Alisher Navoiyning adabiy merosi azaldan Ozarbajjon adabiyoti va adabiyotshunosligida alohida o‘rin tutib kelganki, atoqli ozar shoiri Samad Vurg‘un ikki ulug‘ mutafakkir – Nizomiy va Navoiy

yubileylarini o'tkazish qo'mitasi yig'ilishida (1940 yil 3 dekabr) har ikki allomaning yubiley tantanalariga tayyorgarlik o'tkazish va uni yuqori saviyada o'tkazish lozimligi haqida so'z yuritib shunday degan edi: "Men va mening yaqinlarim ancha paytgacha Navoiyning o'zbek shoiri ekanligini bilmasdik. Chunki har yerda uni Ozarbayjon shoiri deb bilgan. Ozarlar uni o'z shoiri deb hisoblab kelgan. Hazrat Navoiy Sharq adabiyotida fors tilining hukmronligi davrida turkiy tilda go'zal asarlar bitib turkiy xalqlar adabiyoti rivojiga buyuk hissa qo'shdi. Navoiy dahosi, Navoiy siymosini biron bir mezon yoki meyor bilan o'lchab bo'lmaydi. Navoiy betakror asarlar yaratishi bilan birga buyuk bir adabiy tilga asos soldi. U nafaqat ulkan ijodkor, balki tilshunos, adabiyotshunos, tarixchi sifatida ham bu sohalar rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Uning ko'p qirrali iste'dod sohibi ekanligiga hech bir kimsa shubha qilmaydi. Men Navoiynig azim bir daryoga qiyoslayman. Bizning ba'zi olimlarimiz bu daryoda yog'och qayiqlarda suzmoqchi bo'ladilar. Mening nazdimda, bu daryoda faqat zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida bunyod etilgan mustahkam kema bilangina suzish mumkin. Navoiy chin ma'noda Nizomiy ijodiy an'alarini rivojlantirgan, uning panjasiga panja urgan mutafakkirdir" (2,46).

Bir muddat o'tgach yubiley tadbirlaridan so'ng bo'lib o'tgan yig'ilishda Samad Varg'un shunday degan edi: "Alisher Navoiyning asarlari bizning xalqimizga azaldan ma'lumdur. Yaqinda Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni ozar tiliga to'liq tarjima qilindi. So'ng biz uning "Lirika" devonini tayyorladik. Jurnal va gazetalarimizda tez sur'atda Navoiy haqida maqolalar e'lon qilindi. Yubiley uchun Navoiy haqida yaxshi bir kitob tayyorladik. Men uning "Layli va Majnun" dostonini tarjima etish lozim degan fikrdaman. Sharqda uch "Layli va Majnun" dostoni mavjud. Ulardan birinchisini Nizomiy, ikkinchisini Navoiy, uchinchisini Fuzuliy yaratgandir. Bizda, Ozarbayjon tilida Nizomiy va Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostoni bor. Agar Navoiyning "Layli va Majnun"ini tarjima etsak maqsadga muvofiq bo'lar edi" (2,47).

Taniqli adabiyotshunos olimlarimizdan Faridunbey Ko'charli, akademik Hamid Arasli, professorlar Panoh Xalilov, Jannat Nag'iyeva, Xalil Rza Uluturk, Komil Vali Narimono'g'li, Ramiz Asqar, Tarlon Quliyev va boshqalar Alisher Navoiy adabiy merosini tarjima va tadqiq etib Ozarbayjon adabiyoti va adabiyotshunosligida yangicha bir sahifa ochdilar. Aytish mumkinki, Ozarbayjon adabiyotshunosligida navoiyshunoslik sohasida bir qator ishlar amalga oshirildiki, uning miqyosi katta hajmni tashkil etadi. Agar XX asr adabiyot tarixini varaqlasak, bunga o'zimiz ham guvoh bo'lamiz. Chunki, navoiyshunoslikka oid materiallar salmoqli.

Endi bu boradagi ba'zi bir ishlarga nazar tashlaylik.

1902-yildayoq Bog'chasaroyda Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» asari Ismoil Gaspirlining kirish maqolasi ila Ozarbayjon tilida kitob holida chop etilgan (M.Nasafova).

"Tarojumi ahvoli (mashohir) Alisher Navoiy" nomli maqola "Dabiston" jurnalida, "Tarojumi ahvoli Alisher Navoiy" nomli yana bir keng hajmli maqola esa "Dirilik" (Tiriklik) jurnalida e'lon qilindi. Hajman ancha salmoqli sanalgan ushbu maqola mazmunan boy ilmiy va adabiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgani bilan diqqatga sazovordir.

1912-yilda adabiyotshunos va pedagog Farhod Og'azodaning Bokuda nashr etilgan "Adabiyot majmuasi"da, "Dirilik" (Tiriklik) jurnali va boshqa matbuot nashrlarida Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida keng qamrovli maqolalar chop etilgan, Salmon Mumtozning "Navoiyning adabiyotimizga ta'siri" maqolasi "Kommunist" gazetasida e'lon qilingan. S.Mumtozning ushbu maqolasidagi ba'zi jihatlariga nazar solaylik. U yozadi: "Turkiy xalqlar adabiyotida to'rt buyuk siymo borki, ular haqida kichik-kichik maqolalar emas, katta-katta kitoblar yozish ham ozlik qiladi. Chunki ular bir mahallaning, bir shaharning yoki bir mamlakatning emas, balki butun Turk dunyosining faxr-u iftixoridir. Ular erishgan sharafiga hali boshqa shoirlar erishgan emas. Ta'bir joiz bo'lsa aytish kerakki, bu to'rt siymoning nufuz va qudrati butun dunyo madaniyatiga ta'sir ko'rsatdi desak xato qilmagan bo'lamiz. O'zining fusunkor asarlari bilan hali bu buyuk insonlar necha-necha avlodlarning qalbiga kirib boradilar. Yashab o'tgan yillari va tug'ilgan joylari nuqtai nazaridan bu buyuk siymolarni tubanda keltirib o'tamiz:

1. Turkistonlik Xoja Ahad Yassaviy
2. Ozarbayjonlik Sayyid Imodiddin Nasimiy
3. Turkistonlik Nizomiddin Mir Alisher Navoiy
4. Ozarbayjonlik Mulla Muhammadbag'ir Fuzuliy.

Yana bir olim Faridunbey Ko‘charli o‘zining “Ozarbayjon adabiyoti tarixi materiallari” kitobini Alisher Navoiy haqidagi “Alisher Navoiy – Amir Nizomiddin” nomli maqolasi bilan boshlaydi. Alisher Navoiy turk adabiy tili himoyasi yo‘lida kurashdi va unda g‘olib keldi. Turkiy tilda ham go‘zal asarlar yaratish mumkinligini amalda isbotladi. Maqolada olim ana shu nuqtalarga alohida e‘tibor qaratadi. U yozadi: “Alisher Navoiy IX asrning oxirlarida yetishib chiqqan chig‘atoy (o‘zbek) va ajam shuarosining eng mashhurlaridandir. Bu shoir asli chig‘atoy turklaridan bo‘lsa-da, Ozarbayjon shoirlari ichida katta hurmat va shuhrat qozongan. Darhaqiqat, adabiyotimizda Navoiyning ta‘siri juda katta bo‘lganligini ta‘kidlash lozim.. Bunga sabab uning latif so‘zlaridan tizilgan nafis ash‘ori shirin va totli til bilan bunyod etilganidir” (2,49).

Adabiyotshunos olim Ali Nozimiyning 1925-yilda “Kommunist” gazetasida chop etilgan “Alisher Navoiy va biz” deb nomlangan maqolasi shoirning 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik uchun ilk qadam deyish mumkin. Olim shunday yozadi: “Navoiy tom ma’noda buyuk so‘z san’atkoridir. U nainki she‘riyat, balki tabobat, tasviriy san’at, musiqa ilmlaridan ham puxta xabardor bo‘lgan. O‘ttizga yaqin adabiy asar yaratgan Navoiy ko‘plab kuylar bastalagan, bir qator suvratlar ishlagan. Navoiy buyuk asarlar yaratish bilan birga bir qator rassom shogirdlar yetishtirgan va ularga doimo g‘amxo‘rlik qilgan. Navoiy ulkan shoir va rassom bo‘lish barobarida mujaddid, ya’ni yangilik yaratuvchisi hamdir. Uning yangilik yaratuvchiligi nimalarda namoyon bo‘ladi? U na yangi bir adabiy maktab ochgan, na yangi falsafasaga asos solgan, na yangicha shakl yaratgan. Uning yangiligi nimada, bilasizmi? U turkiy tilda ijod qilgan. Bugungi kun nuqtai nazarida turkiy tilda yozish juda jo‘n va oddiy hodisa bo‘lib ko‘rinishi mumkindir. Faqat XV asr musulmon turk dunyosini tadqiq etgan mutaxassislar turk shoirlari ham bu davrda forsiyda ijod qilganligini yaxshi biladilar. Navoiy ana shu forsiygo‘ylikka qarshi isyon ko‘tardi. U turkiy adabiyot tarixida ilk bor turkiy tilda go‘zal asarlar yaratib o‘ziga xos inqilob yasadi. U “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning nafosat va fasohatda forsiydan kam emasligini isbot etib berdi” (2,50).

F.Ko‘pruluzoda, B.Cho‘banzoda, S.Mumtoz, I.Hikmat va boshqa taniqli adabiyotshunoslarning Navoiy adabiy merosi, shaxsiyati haqida 1926-yilda nashr ettirgan maqolalari juda katta ahamiyat kasb etadi. “Ozarbayjon adabiyoti jamiyati” nashriyoti 1926-yilda “Navoiy – Mir Alisher Navoiy” nomli maqolalar to‘plamini nashr etdi. Bu kitob shoir haqida Adabiyot Jamiyatining ikkinchi ulkan ishidir. Kitobning muqaddimasida shunday satrlar keltirilgan: “XV asrdaki turkiy xalqlar adabiyotining eng buyuk siymosi Navoiydir. Mazkur kitobdan o‘rin olgan ilmiy maqolalarda uning shaxsiyati, adabiy faoliyati keng va atroflicha tadqiq etilgan” (3,5).

Kitobdagi ilk maqola Ismoil Hikmatga tegishli. Muallif maqolasida hayoti haqida keng ma’lumotlar berib, so‘ngra uning tili va san’atkorlik mahorati haqida gapirib “chig‘atoy turkchasini jozibadorligi va boyligini o‘zida mujassam etgan betakror san’at asarlari bilan Sharq madaniyatini G‘arbga tanitdi” deya uning buyuk xizmatlarini e‘tirof etadi. Olim qayd etadiki, “Navoiyning Husayn Boyqaro tavsiyasi bilan yaratilgan “Muhokamat ul-lug‘atayn” nomli asari fors tiliga qarshi turk tilining ochiqdan-ochiq kurashini ifodalaydi. Bu bilan Navoiy butun turkiy dunyo shoirlarini safarbarlikka chaqirdi. U turkiy tilning boyligi, kengqamrovligi, ochiqligi, go‘zalligi va jozibadorligini aniq misollar yordamida isbotlab berdi va ijodkorlarni fors tilida emas, turkiy tilda asarlar yaratishga da’vat etdi. Navoiyning o‘zi esa bu tilda yozgan turkiy shoirlarning eng buyuk siymosi bo‘lib qoldi. Navoiy nafaqat turkiy, balki forsiy tilni ham yuksak darajada, o‘z ona tili qadar bilardi. Dastlab bu tilda u eng yuksak asarlar bitdi, go‘zal qasidalar, betakror masnaviylar, ajoyib g‘azallar bitdi. Navoiy bu tilda ham ijod etib o‘zining yuksak san’atkorligini, keng iste’dod egasi ekanligini isbot etdi. Keyinchalik, u turkiy tilda go‘zal va betakror asarlarini bitib, turkiy xalqlar tili va adabiyoti tarixida buyuk ishni, vazifani amalga oshirdi. Bu esa adabiyot va madaniyat tarixidagi muhim va favqulodda hodisalardan bo‘ldi”. Shuningdek, maqolada Navoiyning musiqashunoslik va rassomlik iste’dodi haqida ham fikr yuritilgan.

I.Hikmatning “Navoiy va turk adabiyoti” nomli biz yuqorida bahs yuritgan maqolasi 1926-yilda “Maorif ishchisi”da ham e‘lon qilingan.

To‘plamdagi ikkinchi maqola Bakir Cho‘banzodaning “Navoiy – tilshunos” nomli tadqiqotidir. Bunda Navoiyning tilshunoslik borasidagi faoliyati, ilmiy qarashlari bayon etilgan. Uning “Shahar tili bo‘lmagan turkiy til adabiy til bo‘la olmaydi, degan fikr hukmron bo‘lgan bir davrda Alisher Navoiy tili adabiy til emas, balki xalq tilidir” degan fikrga Ismail Hikmet qarshi chiqadi.

Bakir Cho‘banzodaning “Navoiy – tilshunos” maqolasi ayni paytda “Kommunist” gazetasining 1926-yil 4-mart sonida e‘lon qilingan.

Uchinchi maqola Mirza Muhsin Ibrohimiyning “Fors adabiyotining Alisher Navoiy ijodiga ta’siri” deb nomlangan. Kitobning birinchi sahifasida “Buyuk turk shoiri Navoiy” deb yozilsa-da, ichidagi tadqiqotlarni o‘qigandan so‘ng kishida “Navoiy shoirlikdanda ziyodroq tilshunos hamdir” degan fikr uyg‘onadi.

“Yangi yo‘l” (1926 yil 4 mart) jurnalida chop etilgan “Amir Alisher Navoiy” maqolasi ham o‘quvchiga Navoiy shaxsi, uning boy ma’naviy merosi haqida atroflicha tushuncha beradi. Maqoladagi mana bu faktga e’tibor qarataylik: “Amir Alisher Navoiyning chig‘atoy (o‘zbek) adabiyotida oldidagi xizmatlari beqiyosdir. Firdavsiy fors adabiyoti uchun yangi yo‘llarni kashf qilgan bo‘lsa, Amir Alisher Navoiy ham chig‘atoy (o‘zbek) adabiyotida ham ana shunday yo‘llarni ochdi”(3).

Shoirning o‘sha yili “Munshaot”(5) va “Vaqfiya”(6) asarlari ilk marta Ozarbayjon tilida nashrdan chiqdi.

Aytish joizki, 1926-yilda Sulton Husayn Boyqaroning “Devon”i ham Bokuda Ozarbayjon tilida dunyo yuzini ko‘rdi. Kitobga Ismoil Hikmat va Bakir Cho‘banzodaning “Husayn Boyqaro: hayoti va ijodi” va “Husayn Boyqaro “Devon”i nomli maqolalari ham kiritilgan.

1940-1948-yillar oralig‘ida shoir tavalludining 500 yilligi munosabati bilan Navoiy haqida ko‘plab yangi tadqiqotlar dunyoga keldi, maqolalar yozildi, kitoblar nashr etildi. Bu yillarda akademik Hamid Arasli amalga oshirgan beqiyos ishlarni esga olmaslik mumkin emas. H.Arasli “Alisher Navoiy va uning adabiy merosi” (8) nomli maqolasida yozadi: “Navoiyning adabiy merosi buyuk turkiy dunyo adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ozarbayjon tilida yozilgan darsliklarda Navoiy she‘rlaridan namunalar keltirilib, tarjimai holiga oid ma’lumotlar berilganligiga guvoh bo‘lganmiz. Uning nomi ilk bor Ozarbayjon adabiyoti tarixi bo‘yicha yetuk olim Faridun Ko‘charlining asarlarida Fuzuliy bilan birgalikda tilga olingan.

Faridun Ko‘charli uning Ozarbayjon adabiyotiga bo‘lgan ta’sirini nazarga tutib, uning ijodi haqida keng ma’lumotlar keltirib o‘tadi. A.Navoiy asarlari qayta-qayta nashr etildi. Hali XX asr shoirlaridan Jannat, so‘ngra Ibrohim Tohir shoirning asarlarini tarjima etishda muayyan hissalarini qo‘shganlar”(6).

Hamid Araslining “Nizomiy va Navoiy”, “Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti”, “Alisher Navoiy”, “Alisher Navoiy va uning adabiy merosi”, “Navoiy va Fuzuliy”, “Buyuk shoir” singari maqolalari Navoiy ijodiy merosini Ozarbayjon adabiyotshunosligida o‘rganishda qimmatli manba bo‘lib kelmoqda.

Olim Navoiy ijodiga yuksak baho berar ekan, shunday yozadi: “Alisher Navoiy asarlari Ozarbayjonda XV asrdan boshlab mehr va muhabbat bilan o‘qib kelinmokda. Asrlar davomida xalqimiz Navoiyni o‘z shoirlari qatorida ko‘rib keladi. U bilan zamondosh Kishvari, Xulqiy singari ozar shoirlari Navoiyning ta’siri ostida kamol topganlar. Buyuk Fuzuliy ham o‘z “Layli va Majnun” asarining muqaddimasida uning nomini Nizomiy va Abu Nuvo singari Sharqning buyuk shoirlari qatorida zikr etadi. Mirzo Fatali Oxundov ham o‘z maqolalarida Navoiyni oqil va dono davlat arbobi sifatida e’tirof etadi” (7).

Muhammad Orifning “Alisher Navoiy – buyuk o‘zbek shoiri” maqolasida mana bu fikrlarga duch kelamiz: “Navoiy buyuk bir shoir edi. Adabiyotning san’atning har bir sohasida o‘z iste’dodini namoyon etdi. U yaxshi me’mor hamdir. Shuningdek, Navoiy iste’dodli rassom va musiqashunosdir. Umuman olganda, Alisher Navoiy buyuk vatanparvar va insonparvar edi” (2,53).

Ozarbayjon-o‘zbek adabiy aloqalari borasida dissertatsiya yoqlagan G‘ulomhusayn Aliyevning “Ozarbayjon-o‘zbek adabiy aloqalaridan”, “Ozarbayjon-o‘zbek adabiy aloqalariga doir” maqolalari ham yirik tadqiqotlar sirasiga kiradi.

1947-yilda Alisher Navoiyning “Sab’al sayyor” dostonidagi ikki hikoya, 1948-yilda esa “Farhod va Shirin” dostoni Ozarbayjon tilida nashrdan chiqadi. “Farhod va Shirin” dostonini M.Rahim, M.Dilboziy, N.Rafibeyli, A.Ziyotoy va A.Vohidlar tarjima qilishgan. Bu nashrga akademik Hamid Arasli tomonidan yozilgan “Farhod va Shirin” nomli so‘zboshida asar mavzusi, uning falsafiy va badiiy ahamiyati xususida batafsil fikr yuritilgan. Bu asar 1968-yilda shu variant asosida qayta nashr etildi. Bu kitobga ham Hamid Arasli so‘zboshi yozgan. Sharhlar va tahrir ham ushbu olimga tegishlidir.

1979-yilda Alikbar Ziyotoy mazkur asarni aslidan, ya'ni o'zbek tilidan tarjima qiladi va "Yozuvchi" nashriyatida nashr etiladi.

1975-yilda mutafakkir shoirning "She'rlar" kitobi Bokuda "Ganchlik" (Yoshlar) nashriyatida nashr etiladi. 96 sahifalik bu nafis kitobda shoirning g'azal, muxammas, ruboiy, qit'a va boshqa lirik asarlari kiritilgan. Kitobda Xalq shoiri Sulaymon Rustam tilimizga o'g'irgan "Alisher Navoiy" nomli muqaddima ham o'rin olgan.

2004-yilda Alisher Navoiyning "Tanlangan asarlar"i 1968 va 1979-yillardagi nashrlar asosida takroran 25 ming nusxada chop etildi.

Adabiyotshunosligimizning bu sahifasini varaqlaganimizda, akademik Hamid Araslining Alisher Navoiy adabiy merosini mukammal tadqiq etgan, o'rgangan buyuk olimlardan biri ekanligiga amin bo'lamiz. Olim "Navoiy va Fuzuliy" nomli tadqiqotida bu ikki qudratli san'atkorning yaratgan asarlarini qiyoslash orqali Fuzuliy ijodiga Navoiyning, Navoiy ijodining esa Ozarbayjon adabiyotiga ta'siri masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda mana bu fikrlarni o'qiymiz: "Buyuk shoir Fuzuliyning uch tilda – Ozarbayjon, fors va arab tillarida she'rlar yozishi uning Sharq xalqlari orasida unga katta imkonlar ochdi. Ustozi Navoiyning ham Sharq dunyosida shuhrat qozonishining sababi ham shudir. Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi bo'lsa, Fuzuliy esa Ozarbayjon adabiy tilining yaratuvchisidir" (9). Maqolada har ikki buyuk mutafakkirning asarlari chuqur tahlil etilgan.

Akademik Hamid Araslining biz yuqorida tilga olgan tadqiqotida Ozarbayjon-o'zbek adabiyotining bir-biriga ta'siri haqida to'xtalar ekan, "Ozarbayjon va o'zbek xalqlari orasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar uzoq va boy tarixga ega. Bugungi kunda tobora gullab-yashnayotgan Ozarbayjon va o'zbek adabiy aloqalari taraqqiyotida buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy va yetuk san'atkor Muhammad Fuzuliy ijodi muhim o'rin tutadi. Buyuk shoir Nizomiyning "Xamsa"siga o'zbek tilida javob yozgan va uni o'zining ustози deb bilgan. Alisher Navoiy turk xalqlari adabiyotini o'rta asrlarda taraqqiyotida munosib hissasini qo'shdi. Uni hamma janrlarda mukammal asarlar bitgan yetuk san'atkor sifatida e'tirof etish mumkin.

Haqiqatan, Navoiydan avval va Navoiy davrida o'zbek tilida bir qator iste'dodli san'atkorlar ijod qilgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroiy, Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Durbek, Gadoiy, Atoiy, Sakkokiy kabi san'atkorlar lirik asarlari bilan shuhrat qozondi. Lekin Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" nomli to'rt qismdan iborat devoni boshqa asarlaridan ham ko'ra turkiy xalqlar adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi" (9). Bu Fuzuliyning Navoiy ijodiga, xususan uning "Devon"iga yuksak bahosi va undan ta'sirlanishi faktining o'ziyiq fikrlarimizni asoslashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Davlat mukofoti laureati, professor Laziz Qayumov akademik Hamid Araslining navoiyshunoslik sohasidagi xizmatlarini e'tirof etib, shunday yozgan edi: "Iste'dodli Ozarbayjon olimlari orasida taniqlililar ko'p. Ulardan biri ham Ozarbayjon, ham o'zbek adabiyotining chuqur bilimdoni bo'lgan Hamid Araslidir. Navoiyshunoslarning har yil bo'ladigan an'anaviy anjumanlarida uning ma'ruzalari madaniyat va ilm-fan taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Olimning ilmiy rahbarligi ostida bir qator shogirdlari nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. Hamid Arasli har doim shogirdlariga o'z ko'magi va maslahatlarini ayamaydi. Uning ko'p unvonlari yonida O'zbekistonning "Xizmat ko'rsatgan fan arbobi" nomli mukofot uning xizmatlariga berilgan yuksak bahodir" (10).

O'zbek shoiri Komil Yashinning fikricha, XIV-XV asrlarda yashab ijod etgan o'zbek shoirlari Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy ijodida Nizomiy Ganjaviyning ta'siri ko'p. Yana bir o'zbek mutafakkir shoiri Alisher Navoiyning ijodida Nizomiyning ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Navoiy "Xamsa"si o'zidan avval yaratilgan asarlarning eng yuksak namunasidir. Bu asar, haqli ravishda, o'zbek xalqining madaniyati va adabiyotini yangi bir bosqichga olib chiqdi.

Alisher Navoiyning adabiy merosi Ozarbayjonda qanchalik nashr etilib, sevib o'qilsa, Fuzuliy ijodi ham O'zbekistonda shunday e'zozlanadi. Ozarbayjonlik M.Fuzuliy, Q.Zokir, F.Kamina, M.Vidadiy, S.Shirvoniy, M.Sobir kabi iste'dodli ijodkorlar Alisher Navoiyni hamisha bir ma'bud sifatida e'tirof etib kelgan.

1980-yilda O'zbekistonda Ozarbayjon adabiyoti va san'ati kunlari arafasida Bokuda o'tkazilgan "Navoiy va Fuzuliy" she'riyat kechasi adabiyot ixlosmandlari uchun katta bayramga aylanib ketgan edi.

Kechada soʻzga chiqqanlar – shoirlar, yozuvchilar, olimlar Navoiy va Fuzuliy sheʼriyatining betakrorligi, jozibadorligi haqida soʻz yuritishdi. Shuningdek, bu ikki ulugʻ sanʼatkor Ozarbayjon va oʻzbek adabiyoti oʻrtasidagi adabiy aloqalar tarixida oʻziga xos koʻprik boʻlganligi eʼtirof etib oʻtildi. Shoir Aliakbar Ziyotayinning shu kechadagi qaydlaridan bir parcha keltirishni oʻrinli deb bildik: “Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi arafasida uning “Farhod va Shirin” dostoni tarjima etilgan edi. Biz bu dostonni rus tilidagi tarjimasida oʻqir edik. Men bu tarjima bilan bir qatorda Navoiy dostonining oʻzbekcha variantiga ham murojaat etdim. Shunda Fuzuliy asarlari tili bilan uning tili oʻrtasida yaqinlik borligiga shohid boʻldim. Navoiy ijodidan ayrim namunalarni oʻzbek tilidan oʻz ona tilimizga oʻgirdim. Keyinchalik buyuk shoirning “Sabʼai sayyor” dostonini tarjima etish menga nasib etdi” (2,57).

Bu fikr hozir ham oʻz dolzarb ahamiyatini yoʻqotgan emas. Alisher Navoiy buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyni oʻzining sevimli ustozlaridan biri sifatida eʼtirof etgan. Fuzuliy esa Navoiyga oʻzini bir shogird sifatida bilgan.

Professor P.Xalilov 1977- yilda nashr etilgan “SSSR xalqlar adabiyoti”da buyuk oʻzbek shoiri Alisher Navoiy ijodi haqida kengroq toʻxtaladi. U buyuk shoirning hayoti haqida maʼlumotlar berib, ayrim asarlarini tahlil qiladi (11).

Alisher Navoiyning hayot va faoliyatining, adabiy va ilmiy merosining Ozarbayjonda oʻrganilishi haqida gap borar ekan, filologiya fanlari doktori, professor Jannat Nagʻiyevaning xizmatlarini eʼtirof etmay boʻlmaydi. Olimning Navoiy ijodi haqidagi bir qator tadqiqotlari navoiyshunoslik sohasining alohida sahifasini tashkil etadi. Maʼlumki, Navoiy oʻz zamonasida boy kutubxona barpo etgan. Bu kutubxonadan Ozarbayjon klassik ijodkorlarining ham asarlari oʻrin olgan. Jannat Nagʻiyeva “Klassiklarimizning asarlari Navoiy kutubxonasida” nomli ilmiy tadqiqotida bu haqida kengroq toʻxtalib oʻtadi: “Navoiy bosh vazirligi davrida buyuk bir kutubxona barpo etdi va unda dunyoning eng nodir asarlarini toʻpladi. Ozarbayjon klassiklaridan Xoqoniy, Nizomiy, Nasimiy kabi dunyoga mashhur ijodkorlarning asarlari maxsus xattotlarga koʻchirilib kutubxona fondiga topshirilgan. Nizomiyning bizgacha yetib kelgan “Xamsa”sining eng qadimiy va mukammal nusxasi ham ushbu kutubxonadan joy olgan. Sharqning eng mohir xattot va miniatyurachi rassomlarini saroyga daʼvat etgan Navoiy goʻzal va nodir qoʻlyozma nusxalarni oʻz kutubxonasiga jamlashga erishgan. Bu nodir qoʻlyozma asarlar ichida eng qimmatlisi Nizomiy asarlaridirki, bu Navoiyning Nizomiy ijodiga boʻlgan cheksiz muhabbati va ehtiromi natijasi desak xato qilmagan boʻlamiz” (12).

Navoiy butun ijodi davomida Nizomiy asarlariga murojaat qildi, undan taʼsirlandi. Nizomiy adabiy merosi Oʻzbekistonda Navoiy davriga qadar ham keng oʻrganilgan va sevib oʻqilgan.

“Ozarbayjon klassiklarining qoʻlyozma holida Oʻrta Osiyoning hukmdorlari saroyida, kutubxonalarida saqlanishi, takror koʻchirilishi bir narsadan darak beradiki, adabiy aloqalarimizning tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Soʻz qadar qadim tarixga ega boʻlgan bu aloqalarning adabiyotimizning taraqqiyotida taʼsiri juda kattadir” (2,59).

Jannat Nagʻiyevaning bu mavzuni chuqur bilishining sababi, uning 1986-yilda “Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti. XV-XIX asrlar” mavzusida filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ustida olib borgan izlanishlari natijasidandir. Olimaning 1986-yilda rus tilida “Ilm” nashriyoti tomonidan nashr etilgan “Alisher Navoiyning Boku qoʻlyozmalari” monografiyasi ham ilmiy, ham adabiy aloqalar nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Kitobda Navoiy adabiy merosining AMEA Qoʻlyozmalar Institutida saqlanayotgan qoʻlyozmalari haqida keng maʼlumot beradi. Jannat Nagʻiyevaning ushbu tadqiqoti Navoiy asarlarining Ozarbayjon adabiyotshunosligida oʻrganilishi haqidagi eng qimmatli manbalardan biri desak adashmagan boʻlamiz.

Tadqiqotchi Abulfaz Rahimov mazkur kitob haqida shunday yozadi: “J.Nagʻiyeva Navoiy devonlarining qoʻlyozma nusxalarini oʻrganish tarixi haqida soʻz yuritir ekan, koʻpgina Gʻarb va Sharq mualliflarining nomini tilga oladi. Taniqli oʻzbek olimlari Porso Shamsiyev va Hamid Sulaymonovlarning tadqiqotlariga yuksak baxo beradi. Maʼlumotlarga koʻra, Qoʻlyozmalar institutida shoir devonlarining 17 nusxasi saqlanar ekan. Bu qoʻlyozma nusxalarning koʻpchiligi bir necha asrlar avval mohir xattotlar tarafidan koʻchirilgan. Bu qoʻlyozmalar muhim manba boʻlishi bilan birga xattotlik sanʼatining eng goʻzal namunasi hamdir. Shu bois Navoiyning Toshkentda “Mukammal asarlar toʻplami”ni tayyorlashda ushbu qoʻlyozmalardan ham unumli foydalanilgan” (2,60).

Bu boradagi yana bir masalaga toʻxtalish lozim. Oʻrta asr Ozarbayjonning aksar shoir va

olimlarining shaxsiy kutubxonalarida Navoiy asarlarining qo'lyozma nusxalari saqlangan. Bu fakt har davrda o'z dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Bular orasida Ardabildaki Shayx Safiy maqbarasi qoshidagi kutubxonani, Tabriz Milliy kutubxonasini, shuningdek, A.Bakixonov, M.Adigozal bey, H.Yuzbashov, S.Mumtoz kabilarning shaxsiy kutubxonalarini ko'rsatib o'tmoq joizdir. Bu kutubxonalarda Alisher Navoiyning "Devon"ining qo'lyozma nusxalari o'rin olganligini alohida ta'kidlash lozim.

Bir fikrga diqqatni qaratishni xohlar edim. Qadim davrlarda davlatlar o'rtasida olib borilgan o'zaro urushlar natijasida dunyoning eng nodir asarlari saqlangan kutubxonalarning vayron etilishi, hattoki, yondirib yuborilishi holatlari ham kuzatiladi. Bu, albatta, achinarli va afsuslanarli holdir. Agar ana shu davrlarda kutubxonalardagi eng nodir qo'lyozmalar saqlanganda, biz bugun hozirgidan ham ko'proq qimmatli manbalarga ega bo'lgan bo'lar edik. Albatta, bular orasida Navoiyning eng nodir qo'lyozma asarlari ham bizgacha yetib kelgan bo'lar edi.

Mashhur o'zbek navoiyshunos olimi, Toshkentdagi Qo'lyozmalar Institutining direktori Hamid Sulaymonov Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalari ustida izlanishlar olib borish uchun 1950-yilning o'rtalarida Bokuga kelgan edi. Avval qayd etib o'tganimizdek, Alisher Navoiy asarlarining mukammal nashrini tayyorlashda Bokudagi qo'lyozma nusxalardan ham foydalanilgan. Chunki bu qo'lyozmalar eng qadimiy nusxalardandir. O'z vaqtida urushlar natijasida yoki boshqa sabablar bilan Navoiy asarlarining qo'lyozma nusxalari yo'qolgan, boshqa o'lkalarga olib ketilgan. Hozir ba'zi qo'lyozmalar dunyoning eng mashhur kutubxonalari fondida saqlanadi.

Hamid Sulaymonov Navoiy "Devon"ining tanqidiy matnini tayyorladi. Olima Jannat Nag'iyeva bu ishda Hamid Sulaymonovga eng yaqin ko'makchi bo'lganligini e'tirof etmoq lozim. Olima Navoiy qo'lyozma nusxalarini fondan qidirib topishda katta yordam berdi. Bu olimaning bir jihatdan o'z yurtiga mehmon bo'lib turgan taniqli mehmonga hurmatini ifodalasa, boshqa jihatdan uning Navoiyga bo'lgan muhabbatining bir namunasi deyish mumkin. Hamid Sulaymon Jannat Nag'iyevaga Navoiy asarlarining Boku qo'lyozma nusxalaridan nomzodlik dissertatsiyasi yozishni taklif etdi.

Keyinchalik Jannat Nag'iyeva ilmiy faoliyati davomida Alisher Navoiy ijodi bo'yicha "Navoiy ensiklopediyasi lug'ati" (mualliflardan biri, 1989), "Ozarbayjonda Navoiy" (2001), "Navoiyning Boku qo'lyozmalari" (1986), "Navai i Azerbaydjanskaya literatura. XV-XIX veka" (1990) kitoblarini chop ettirdi. Uning faqat Alisher Navoiy ijodiga oid Ozarbayjon, rus va o'zbek tillarida 60 dan ziyodroq ilmiy maqolalari turli kitob, jurnal, almanax va gazetalarda e'lon qilindi. 1988-yilda Toshkentda "Fan" nashriyotida chop etilgan "Navoiy ensiklopediyasi lug'ati"da tadqiqotchining 30 ga yaqin maqolalari kiritilgan (2,82-88). Qolaversa, olim har yili fevral oyida Toshkent, Samarqand, Xiva va boshqa shaharlarda Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq ilmiy anjumanlarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdi. Jannat Nag'iyeva har Toshkentga kelganida Toshkent davlat universitetida talabalarga "Ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalariga" mavzusida ma'ruzalar o'qidi. Qolaversa, shu universitet talabalari Bokuga tahsil uchun borganida ham ayni mavzuda o'z ilmiy ma'ruzalarini o'qishdan o'zgacha zavq olar edi.

Alisher Navoiy adabiy merosi, shaxsiyati ana necha asrlar o'tyaptiki, ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini jalb etib keloqda. Uning ijodi haqida ko'plab tadqiqotlar yaratilmoqda, kitoblar chop etilmoqda.

Yana bir Ozarbayjon olimi Tarlan Quliyev Alisher Navoiyning mashhur "Mezon ul-avzon" ("Vaznlar o'lchovi") asarini Ozarbayjon tiliga tarjima qildi. U bu asarni o'zbekchadan tilimizga o'girarkan, matnga oid qaydlar, sharhlarni ham keltirib o'tadi. "Amir Alisher Navoiy va uning "Mezon ul-avzon" asari nomli kirish so'zi bilan kitobni chop ettiradi.

Turkiy tilda aruzning nazariy muammolari ilk bor keng va atroflicha Navoiyning mazkur asarida o'z ifodasini topgan. Keyinchalik boshqa bir o'zbek shoiri va olimi Zahiriddin Muhammad Bobur aruz ilmini yanada takomillashtirdi. Tarlan Quliyev aruzshunoslik ilmini taraqqiyot yo'llarini tadqiq etdi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotshunosligimizning Navoiy ijodi bilan bog'liq sahifasi hali bir necha tadqiqotlar, kitoblar bilan boyib boradi. Navoiy ijodi hali ko'p asrlar tadqiqotlar uchun mavzu bo'la olishiga shak-shubha yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Ülvi. Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələri (monoqrafiya). – Bakı, "Qartal", 2008, 328 səh.
2. Əlişir Nəvai Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığında (məqalələr). Tərtib edən A.Ülvi. Bakı, "Qartal",

2009, 360 səh.

3. Əlişir Nəvai. Vəqfiyyə. Bakı, Azərbaycan Ədəbiyyatı Cəmiyyəti Nəşriyyatı, 1926, 55 səh.
4. Əlişir Nəvai. Münşəat. Bakı, Azərbaycan ədəbiyyatı cəmiyyəti nəşriyyatı, 1926, 52 səh.
5. Araslı Həmid. Azərbaycan ədəbiyyatı: tarixi və problemləri. Bakı, Gənclik, 1998, 732 səh.
6. Araslı Həmid. Böyük Azərbaycan şairi Füzuli. Bakı, EA nəşriyyatı, 1958. 312 səh.
7. Araslı Həmid. Nəvai və Füzuli // “Ədəbiyyat və incəsənət”, 30 may, 1980.
8. Kayumov Ləziz. Özbək ədəbiyyatı // “Ədəbiyyat və incəsənət”, 8 yanvar 1972.
9. Xəlilov Pənah. SSRİ xalqları ədəbiyyatı. II hissə. Bakı, Maarif, 1977, 360 səh.
10. Nağıyeva Cənnət. Klassiklərimizin əsərləri Nəvai kitabxanasında // “Ədəbiyyat və incəsənət”, 10 yanvar, 1976.
11. Ülvi, Almaz. Özbək ədəbiyyatı (ədəbi portret cizgiləri, araşdırmalar, müsahibələr). elmi redaktoru və ön söz müəllifi akademik İsa Həbibbəyli. - Bakı, “Elm və təhsil”, 2016, 316 səh.

Almaz Ülvi (BİNNƏTOVA)

Əmir Əlişir Nəvai və Azərbaycan

Xülasə

Ə.Nəvai ədəbi irsi Azərbaycan ədəbiyyatında, ədəbiyyatşünaslığında o qədər doğruluqla xüsusi yer tutmuşdur ki, dahi Səməd Vurğunun yazdığı kimi, "mən və mənim yoldaşlarım son illərdə bilmirdik ki, Nəvai özbək şairidir. Hər yerdə onun adı Azərbaycan şairi kimi çəkilirdi". Nəvai xüsusilə bütün Şərq xalqlarının ədəbiyyatından fars dilinin qovulması sahəsində olduqca böyük rol oynamışdır. Ə.Nəvainin şəxsiyyəti, siması olduqca əzəmətlidir. Ə.Nəvai yalnız böyük ədəbiyyat deyil, böyük dil də yaratmışdır. Nəvai bir alim kimi, dilşünas, tarixçi kimi çıxış edir. O, son dərəcə çoxcəhətli və istedadlıdır.

Görkəmli ədəbiyyatşünas və tanınmış alimlərimizdən Firidun bəy Köçərli, akademik Həmid Araslı, Azad Nəbiyev, professorlar Pənah Xəlilov, Cənnət Nağıyeva, Xəlil Rza Ulutürk, Kamil Vəli Nərimanoglu və başqaları Ə.Nəvai irsini tədqiq və tərcümə etmiş, Azərbaycan ədəbiyyatında və ədəbiyyatşünaslığında ayrıca bir səhifə açmışlar. Belə demək mümkünsə, Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığının nəvaişünaslıq səhifəsi elmi - nəzəri müstəvidə kifayət qədər zəngin işlənmişdir. Təkcə XX əsr ədəbi tənqid tarixini vərəqləsək, bu baxımdan xeyli qədər material əldə etmək olur. Bu araşdırma məhz bir neçə tədqiqatdan bəzi iqtibaslarla hazırlanmışdır.

Almaz Ulvi (BINNATOVA)

Amir Alisher Navoi and Azerbaijan

Summary

Alisher Navoiy's literary heritage had a special place in Azerbaijani literature and literary criticism. Great Samad Vurgun wrote: "Me and my friends didn't know that Alisher Navoiy is the Uzbek poet. His name was mentioned as Azerbaijani poet everywhere. Navoiy played a great role in the field of the expulsion of Persian language from the Eastern literature. A.Navoiy's identity is great. The poet created not only great literature but also great language. Navoiy was a scholar, linguist, historian and talented.

Prominent literary critics and well-known scientists Firidun Bey Kocharli, academic Hamid Arasli, Azad Nabiyev, professors, Penah Khalilov, Jannat Nagiyeva, Khalil Rza Uluturk, Kamil Vali Narimanoglu and others explored Navoiy's heritage and translated. They opened a special page in Azerbaijani literature and literary criticism. The page of Navoiy studies in Azerbaijan literary criticism was explored sufficiently in the scientific theoretical plane. If we look over the history of literary criticism in XX century we can get a lot of material from this point of view. This exploration was prepared with some quotations.

«САБЪАИСАЙЁР»: АДАБИЙАНЪАНАВАЯНГИЛИКЛАР

Alisher Navoiy ta'kidlaganidek, yaxshi kishilar o'zining ijodi bilan, Vatanga sadoqat va e'tiqodi bilan xizmat qilsin, ulardan avlodlar faxrlansin, g'ururlansin. Zero, shoir B.Boyqobilov yozgandek:

*Navoiyning izin topsam,
Hoki poyin surgayman ko'zga.
Unga qalbim sham' qilib yoqsam,
Koshki nuri yetsa yulduzga!..*

Alisher Navoiy o'z asarlarida yuksak ma'naviyatli, har tomonlama komil inson obrazini yaratib, kishilarni shulardan o'rnak olishga, shu qahramonlardagi insoniylik hislatlarini egallashga chaqiradi.

Shoirning har bir asari, o'lmas satrlari tiriklikning mangu yo'ldoshi bo'lib kelmoqda. Shoir g'azallari, uning asrlari insoniyatni mehr - muhabbat manzillari tomon boshlab boraveradi.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Ҳайратул аброр. -Т., Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1989 у. - 14 б.
2. Алишер Навоий. Махбуб-ул қулуб. -Т., Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1983 , 27-б

МУНДАРИЖА

Алишер Навоий ижодий меросининг маънавий тараққиётда тутган ўрни.

Қ.Б.ТУРСУНОВ Навоий вилоят ҳокими

БИРИНЧИ ШЎЪБА:

АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ МЕРОСИНИНГ ОЛАМШУМУЛ АҲАМИЯТИ

1. Алишер Навоий ижодида диний эътиқод масаласи. Филология фанлари доктори, профессор Шухрат СИРОЖИДДИНОВ (ТошДЎТАУ).

2.Миллий ғоямизнинг қудратли икки қаноти. Муҳаммад АЛИ. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси раиси, Халқ ёзувчиси.

3.Алишер Навоий – умумтуркий адабиётнинг буюк вакили. Исо ҲАББИБЕЙЛИ академик Озарбайжон Миллий Илмлар академиясининг вице-президенти, ОМИА Низомий Ганжавий номли Адабиёт институтининг директори, филология фанлари доктори, профессор, республикада хизмат кўрсатган илмий ходим, Озарбайжон Республикаси Миллий мажлисининг депутаты. **(Озарбайжон)**

4.Amir Alisher Navoiy va ozarbayjon. Almas ULVI (Binnatova) filologiya fanlari doktori, professor Ozarbayjon Milliy Bilimlar Akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomli Adabiyot Institutining “Ozarbayjon-Turkmaniston-O‘zbekiston adabiy aloqalari” sho‘basining müdiri, (Azerbaijan).

5.“Сабъан сайёр”: адабий анъана ва янгиликлар. Абдусалом АБДУҚОДИРОВ,